


## **ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

**2018 yil yanvar-iyun oylarida**

### **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**


Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1744,6 mlrd. so`nni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 117,5 %ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o`zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi 931,4 mlrd.so`m yoki jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 53,4 %ini korhona va aholining o`z mablag`lari hisobidan to`g`ri keldi, 813,2 mlrd.so`m yoki jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 46,6 % i, jalb etilgan mablag`lar hisobiga o`zlashtirildi.

### **Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo`lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 336,0 mlrd. so`m yoki jami o`zlashtirilgan invest-titsiyalarning 19,3 % ini, hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1408,6 mlrd so`m yoki jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 80,7 % o`zlashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining - 2,4 %ini Respublika byudjeti, Davlat maqsadli jamg`armalari 6,9 % ni, tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi 8,0 %ni **O`zbekiston Respublikasi** kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 2,0 %ni tashkil etdi.




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 40,6%ini korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari tashkil etadi. Bu korhona va tashkilotlarning asosiy qismi o`z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o`z mablag`lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog`liq.

To`g`ridan to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 13,7 %ini tashkil etdi. Bunda Ustyurt investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo`lga qo`yish loyihalarining ulushi kotta.


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 13,6 %ini tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablaglari tashkil etdi.

Joriy yilda yakka tartibdagi uy-joy qurilishidagi aholi tomonidan ajratilgan mablag`larning ulushi 12,8 %ni tashkil etdi.



### **Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar**


#### **2018 yil yanvar-iyun oylari uchun qurilish ishlari**



Tumanlar kesimida Taxiatosh, Kungirot, Taxtakupir va Shumanay tumanlaridagi investitsion faoliyat natijasida yuqori oʼshish suratlari qayd etildi.

Amudaryo, Beruniy,Nukus tumani va Xujayli tumanlarida faollik natijasi kamaygan

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi***



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 979,8 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bolsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 501,4 mlrd. so'm va boshqa xara-jatlarga 263,4 mlrd. so'm o'zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariiga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko'payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy tarmoqlarda, hususan tog'-kon sanoatida yaratilayotgan yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlariga investitsiyalar bilan bog'liq.

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi***


Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqorida ta'kidlab o'tilganidek tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami molijalashtirish manbalari hisobidan 562,1 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 32,2 %i o'zlashtirilgan. Shundan 99,4%i tabiiy gaz qazib chiqarish uchun yo'naltirilgan.



Turar joy qurilishiga investitsiyalar 315,6 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 18,1%ni tashkil etdi.Ush bu ko`satskich aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar qurilishi bo`yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog`liq.

Ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar hajmi 236,4 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 13,6%ni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar: tekstil mahsulotlari ishlab shiqarish 54,7 mlrd. so`m (3,1 % jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarish 28,4 mlrd.so`m (1,5%), elektr uskunalarini ishlab shiqarishda 47,8 mlrd.so`mni (1,5%) tashkil etildi.


Jami 178,4 mlrd.sóm investitsiyalar elektr va gaz tarmoqlariga, umumiyligi investitsiyadagi ulushi 10,2%, shu bilan birga 131,7 mlrd.so`m investitsiya tashish va saqlash faoliyat turi boyicha (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 7,5%ni) jalb etildi.



## **Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar**

Joriy davrda 273,6 mlrd so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,7%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

### **Hisobot davrida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar**




## **Obyektlarni ishga tushirish**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning natijasi sifatida ijtimoiy soha obyektlari ishga tushirildi.

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami 203,4 ming kv.m, shu jumladan qishloq joylarda 54,7 ming kv.m turar joylar ishga tushirildi. Ulardan namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar 9,1 ming kv.m ni tashkil etdi.

Kommunal sohada jami 1,5 km uzunlikdagi gaz quvurlari ishga tushirilgan bo`lib, undan 0,8 km uzunlikdagisi qishloq joylarda ishga tushirildi. Suv quvurlari tarmog`i bo`yicha esa 5,8 km ishga tushirilgan bo`lib, undan 0,9 kmi qishloq joylarda ishga tushirildi.



*Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova  
Aloqa telefoni: (861) 222-75-91*